



**OZIQ-OVQAT
XAVFSIZLIGINI
TA'MINLASHNING
ASOSIY
YO'NALISHLARI**

Eshmanov Mardonbek Sobir o'g'li

21/2 guruh talabasi, "STARS International
University"

mardonbekeshmanov79@gmail.com

Ilmiy rahbar: Saidova Marhabo Xabibullo qizi,

PhD, Dotsent, "STARS International University"

saidovamarhabo1991@gmail.com

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp104-114>

Annotatsiya: Ushbu maqolada: Butun dunyoda oziq – ovqat muammosi va O'zbekiston xalqi o'zini o'zi oziq – ovqat bilan ta'minlashi va boshqa davlatlarga eksport qilishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Maqolaning asl mohiyati shundan iboratki, tashlandiq yerlardan qancha unumni foydalanish va u yerlardan foyda olish oziq – ovqat bilan ta'minlash kerakligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Oziq – ovqat, YuNEP, COVID-19, FAO, "Rim deklaratsiyasi", Milliy iqtisodiyot BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YaIM, YaQQ, G'allachilik, Poliz mahsulotlari, Oziq – ovqat, ichimliklar, Jadval ko'rsatkichlari, Sitatistikalar, Ishlab chiqarish mahsulotlari, Qishloq xo'jalik mahsulotlari.

Yer yuzi aholisi hayot faoliyati sifati har jihatdan sifatli oziq-ovqat bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq. Har bir mamlakat o'zining iqlimiy sharoiti, yer unumdorligi, intensiv qishloq xo'jaligi, sanoatning rivojlanganlik darajasiga qarab bu muammoni turli usullar orqali hal qilmoqdalar. Ammo shunda ham iqtisodiyoti qoloq, aholi soni yuqori mamlakatlar oziq-ovqat taqchilligi muammosini to'la to'kis hal eta olishmayapti. Buning oqibatida esa insonlarda to'yib ovqatlanmaslik, ochlik, kambag'allik, qashshoqlik ko'rsatkichlari o'sib bormoqda. Ko'rsatkichlarga nazar tashlasak, jahon aholisining 815 million nafari ocharchilikdan qiynalmoqda. Bugungi kunga kelib COVID-19 pandemiyasi tufayli ular soni ikki barobarga oshishi kutilmoqda. O'zbekiston global oziq-ovqat xavfsizligi reytingida 80-o'ringan 71-o'ringa yuqoriladi. O'zbekiston ocharchilik darajasi bo'yicha 2019-yilda global ochlik indeksida 10,7 ball bilan 49-o'rinni egallagan bo'lsa, 2020-yilda ushbu indeksda 107 mamlakat ichida 6,7 ball bilan 30-o'ringa ko'tarildi. Masalaning yana bir tomoni qishloq xo'jaligi dunyodagi eng katta ish beruvchi tarmoqdir. Bugun dunyo aholisining 40 foizi aynan shu soha orqali tirikchilik qiladi. Demak, oziq-o-

vqat xavfsizligiga tahdidni hal qilish bo'yicha yechimlar mavjud va ular bugungi kunda ma'lum darajada amalga oshirilmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda har yili 4 mlrd. tonna oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqariladi. BMTning atrof-muhit bo'yicha tashkiloti(YuNEP) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyoda 1,3 mlrd.tonna oziq-ovqat mahsulotlari tashlab yuboriladi. Mamlakatimiz hududining 85 foizi cho'l hamda yarimcho'l yerlaridan tashkil topgan. Bugungi kunda aholi ixtiyorida 480 ming gektardan ortiq tomorqa ekin maydonlari mavjud. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, insonning normal ovqatlanishi uchun har bir kishiga o'rtacha yillik 113 kg sabzavot, 50,4 kg kartoshka, 19,3 kg poliz, 21,3 kg meva va uzum, 40 kg go'sht, 140litr sut, 121 dona tuxum, 0,8 kg asal kabi mahsulotlar talab qilinadi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi turlari orasida oziq-ovqat xavfsizligi milliy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida alohida o'rin tutadi. Insoniyat tarixi davomida oziq-ovqat ta'minoti dunyo davlatlari milliy xavfsizligining eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Milliy iqtisodiy tizimning tegishli rivojlanish darajasi aholining normal yashash sharoitlarini saqlab qolish qobiliyatini, umuman iqtisodiyotni rivojlantirish uchun resurslarni barqaror ta'minlashni, shuningdek milliy va davlat manfaatlarini izchil amalga oshirishni belgilaydi. Aholining ovqatlanish darajasi va sifati uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tavsiflaydi, chunki "... oziq-ovqat ishlab chiqarish to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchilar va umuman har qanday ishlab chiqarish jarayonining birinchi shartidir ...".

Oziq-ovqat xavfsizligi atamasi xalqaro muomalaga 1972-1973-yillarda yuz bergan don inqirozidan keyin kirib keldi. Bu davrda rivojlangan mamlakatlarda ortiqcha oziq-ovqat ishlab chiqarish yuzaga kelgan. Bu muammo jahon hamjamiyatida muhokama qilina boshlangan. Bu muhokamalar zamirada 1974-yilning dekabr oyida bo'lib o'tgan uchinchi dunyo mamlakatlarida aholi o'rtasida ocharchilik vujudga kelishini oldini olish yuzasidan BMT Bosh Assambleyasida Birlashgan Millatlarning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan "Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Xalqaro majburiyatlar" ma'qullandi. Ammo bu hujjatda oziq-ovqat xavfsizligi atamasiga ta'rif berilmagan.

Oziq-ovqat xavfsizligiga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu tushuncha birinchi marta o'tgan asrning 70-yillarida iste'molga kirib kelgan. Keyinchalik bu tushuncha ma'no jihatdan kengayib bordi. Bu borada oziq-ovqat xavfsizligi kontseptsiasining evolyutsiyasini ko'rib chiqish bu borada kengroq davriy tushunchaga ega bo'lishimizga yordam beradi(1-ilova).

1996-yilning noyabr oyida bo'lib o'tgan oliy darajadagi Rim xalqaro uchrashuvida "Butun dunyo oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha Rim deklaratsiyasi" qabul qilingan. Ushbu deklaratsiya har kimning yashash va munosib ovqatlanish huquqi-

ga muvofiq salomatligi uchun xavfsiz va to'laqonli oziq-ovqat mahsulotlariga erishish huquqiga ega ekanligi tasdiqlangan. Shu yilda bo'lib o'tgan Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha butunjahon sammitida Jahon banki taklif etgan ta'rifga ko'ra "barcha insonlarning faol va sog'lom turmush tarzi kechirishi uchun, o'zlarining ehtiyojlariga mos, yetarli hajmdagi, xavfsiz va to'yimli oziq-ovqatlarni har doim olishga jismoniy va iqtisodiy jihatdan qurlari yetishi – oziq-ovqat xavfsizligini anglatadi. FAO ta'rifiga tayanib ta'kidlanishicha, "oziq-ovqat xavfsizligiga erishish, bu barcha insonlarning xohlagan vaqtda jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yetarli miqdorda xavfsiz ozuqaviy mahsulotlar bilan ta'minlanishini anglatadi. Ushbu mahsulotlar shaxsni fiziologik me'yorlar bo'yicha qoniqtirishi, uning xohish-istagiga mos kelishi va faol sog'lom turmush tarzini shakllantirishi shart.

2001-yilda oziq-ovqat xavfsizligi g'oyasiga moddiy va iqtisodiy imkoniyatdan tashqari ijtimoiy imkoniyat tushunchasi ham qo'shildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti" (FAO) belgilagan tushuncha mazkur qo'shimcha jihatni quyidagicha aks ettiradi: "barcha odamlarda o'z oziqlanish ehtiyojlari va shaxsiy xohishlariga binoan hamda faol va sog'lom hayotni ta'minlash uchun yetarli miqdorda xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo'lishi uchun jismonan, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlari mavjudligi oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlandi deganidir".


O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat iste'moli darajasi, avvalo, mamlakat aholi demografiyasi holati bilan bog'liqdir. Aholining yoshi va jins tarkibining holati va o'zgarishiga qarab oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan umumiy talab shakllanadi.

Respublikamizda aholi o'sishi dinamikasiga nazar solsak o'sib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Mamlakatda tug'ilish salmog'i yuqoriligi sababali kichik yoshdagi bolalar, yoshlar va o'rta yosh toifalari aholining asosiy qatlamini tashkil etmoqda. Aynan shu qatlamlar o'rtasida yuqori kaloriyali energiya sarflanishi tufayli oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoj, uning sifati va miqdoriga ayniqsa talab kuchli bo'ladi. Quyida mamalakatimizda aholi soniga nisbatan yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'sish sur'atini jadval raqamlari yordamida ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

Jadval ko'rsatkichlari yordamida quyidagi dinamikaga e'tibor qaratadigan bo'lsak (1-rasm), 2000-yildan 2009-yillar oralig'ida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti stabil tendensiyada o'sgan bo'lsa 2009–2020-yillarda o'sish sur'ati jadallashganini buning natijasida esa yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdori 2017–2018-yillarda 10, 11 barobarni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Bunday o'sish sur'atini qishloq xo'jaligi ekin maydonlari gektarini oshganligi hamda bu sohaga ajratilayotgan investitsiyalar miqdori va eksport ko'lami bilan izohlash mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi aholi soni va yetishtirilayotgan
qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'sish sur'ati¹**

Hududlar	Yillar	Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti, (mln. so'm)	Aholi soni (mln. kishi)	Yqsh/aholi	O'sish sur'ati
O'zbekiston Respublikasi	2000	1 387 245,80	24487,7	56,65071852	—
	2001	2 104 835,00	24813,1	84,82757092	0,281768524
	2002	3 255 324,10	25115,8	129,6125984	0,447850275
	2003	4 083 339,90	25427,9	160,5850228	0,309724243
	2004	4 615 816,00	25707,4	179,5520356	0,189670129
	2005	5 978 337,90	25707,4	232,5531909	0,530011553
	2006	7 538 774,60	26312,7	286,5070707	0,539538798
	2007	9 304 857,80	26663,8	348,9696817	0,62462611
	2008	11 310 718,10	27072,2	417,7982617	0,688285799
	2009	13 628 632,30	27533,4	494,9854468	0,771871851
	2010	32 746 521,90	28001,4	1169,460166	6,744747195
	2011	48 068 344,80	29123,4	1650,505944	4,810457774
	2012	58 549 266,90	29555,4	1981,00066	3,304947161
	2013	69 391 323,40	29993,5	2313,545381	3,325447217
	2014	85 101 685,70	30792,8	2763,6878	4,501424189
	2015	103 301 974,90	31022,5	3329,904905	5,662171041
	2016	119 726 684,80	31575,3	3791,78297	4,618780651
	2017	154 369 402,70	32120,5	4805,946442	10,14163473
	2018	195 095 553,20	32656,7	5974,135574	11,68189132
	2019	224 265 855,60	33255,5	6743,722259	7,695866855
	2020	260 306 815,00	34000,8	7655,902655	9,121803958



**1-rasm. O'zbekiston Respublikasi aholi soniga mos
ravishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'sish dinamikasi²**

¹ www.stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

² www.stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yalpi ichki mahsulotda qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaliklarining ulushining oʻsishi dinamikasi (2-jadval).

2-jadval

**2016–2020-yillarda qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining
YaIM ishlab chiqarishdagi ulushi³**

		YaIM	Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi
Mlrd. Soʻm	2016-yil	198871,6	32276,8
	2017-yil	249136,4	43149,8
2016-yilga nisbatan % hisobida		105,3	102,0
YaIM (YaQQ) oʻsishida tarmoqning hissasi		5,3	0,4
2018-yil	Mlrd. Soʻm	406 648,5	113 660,7
	Oʻsish surʼati	105,4	100,3
2019-yil	Mlrd. Soʻm	510 117,2	130 306,9
	Oʻsish surʼati	105,8	103,1
YaIM (YaQQ) oʻsishida tarmoqning hissasi		5,8	0,9
2020-yil	Mlrd. Soʻm	580 203,2	151 251,0
	Oʻsish surʼati	101,6	103,0
YaIM (YaQQ) oʻsishida tarmoqning hissasi		1,6	0,8
2019-yil yanvar–mart	Mlrd. Soʻm	93036,3	11858,0
	Oʻsish surʼati	106,0	102,4
2020-yil yanvar–mart	Mlrd. Soʻm	112503,3	14717,5
	Oʻsish surʼati	104,6	103,9
2021-yil yanvar–mart	Mlrd. Soʻm	128556,8	17440,1
	Oʻsish surʼati	103,0	103,1

2017-yilda 2 % oʻsish surʼatini tashkil etib YaIM tarkibidagi ulushi 19,2 %ni tashkil etgan boʻlsa, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarmogʻidagi oʻsish surʼati hisobidan YaIMning 0,4% punktga nisbatan oʻsishi taminlangan. 2019-yilda 0,3 %dan 2020-yil 0,8 %ga pasayishi kuztilgan. 2021-yil yanvar – mart oylari yakunlariga koʻra, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 3,1 % darajasida ijobiy oʻsish qayd etildi. Ushbu tarmoqda ijobiy oʻsish surʼatlari dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 5,0 % ga (2020 yilning yanvar-martida – 6,4 % ga oʻsish, 2019-yilning yanvar-martida – 0,6 % ga oʻsish) va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,0 % ga oʻsish (2020-yilning yanvar-martida – 3,6 % ga oʻsishi, 2019-yilning yanvar-martida – 3,4 % ga oʻsishi) bilan bogʻliq.

Oziq-ovqat taʼminoti va xavfsizligi birinchi navbatda agrar sektorning salohiyatiga tayanadi. Garchi 2000-2020-yillarda qishloq xoʻjaligi yalpi mahsulotining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmogʻi 34,4 dan 28,2, qishloq xoʻjaligi yalpi mahsulotining oʻtgan yillarga nisbatan yillik oʻsish surʼatlari 3,1 dan 2,8 %gacha

³ www.stat.uz statistic toʻplamlar koʻrsatkichlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

pasaygan bo'lsada, agrar sektor hamon mamlakat iqtisodiyotining yirik tayanch tarmoqlaridan biri bo'lib qolmoqda. (3-jadval).

3-jadval

Respublikada agrar sektor rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi.^{4*}

Ko'rsatkichlar	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2015-y.	2019-y.	2020-y.
Yalpi ichki mahsulotda qishloq xo'jaligining salmog'i, %da	34,4	29,5	32,9	34,1	28,1	28,2
Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining yillik o'sish sur'atlar, o'tgan yilga nisbatan	103,1	105,4	106,3	106,1	102,5	102,8
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda qishloq xo'jaligining salmog'i, % da	5,7	4,4	3,5	3,3	8,0	8,9

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ham miqdor, ham sifat jihatdan muntazam oshirib borish va shu asosda oziq-ovqat ta'minotini mustahkamlash borasida muayyan natijalar qo'lga kiritildi. Natijada asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga oshib bordi (4-jadval).

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda 2000-2020-yillar oralig'ida mamlakatimiz doimiy aholisi soni 1,38 martaga oshib, jami ekin maydonlari hajmi 10,8 %ga qisqargan bo'lishiga qaramay, oziq-ovqat mahsulotlaridan bug'doy ishlab chiqarish 1,80, kartoshka 4,29, sabzavotlar 3,95, poliz 4,73, mevalar 3,62, uzum 262, go'sht (tirik vaznda) 3,00, sut 3,03 va tuxum 6,23 martaga oshdi. Eng muhimi bu o'sish ekstensiv omillar emas, balki hosildorlik va mahsuldorlik kabi intensiv omillar ta'sirida yuz berdi.

4-jadval

Respublikada asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi (barcha toifadagi xo'jaliklarda), ming tonnada^{5*}

Ko'rsatkichlar	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2015-y.	2019-y.	2020-y.	2020 y. 2000 y.ga nisb., %
Don, jami	3 929,4	6 401,8	7 404,1	8 173,5	7 187,4	7566,6	192,5
Shu jumladan: Bug'doy	3 532,0	5 927,8	6 657,3	6 964,7	6 121,1	6366,8	180,2
Kartoshka	731,1	924,2	1 693,9	2 696,9	2 950,9	3143,5	429,9

⁴ Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining tegishli yillar bo'yicha to'plamlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁵ Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining tegishli yillar bo'yicha to'plamlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Sabzavotlar	2 644,7	3517,5	6 346,5	10 129,3	9 945,5	10459,5	395,4
Poliz	451,1	615,3	1 182,4	1 853,6	1 922,2	2134,4	473,1
Mevalar	790,9	949,3	1 710,3	2 746,1	2 739,6	2864,0	362,1
Uzum	624,2	641,6	987,3	1 579,3	1 595,2	1639,2	262,6
Go'sht (tirik vaznda)	841,0	1 061,2	1 461,4	2 033,4	2 465,0	2526,2	300,3
Sut	3 632,5	4 554,5	6 169,0	9 027,8	10 710,8	11009,9	303,1
Tuxum, mln. dona	1 254,4	1 966,7	3 061,2	5 535,4	7 757,4	7825,0	623,8
Ma'lumot uchun:							
<i>Doimiy aholi soni(mln. kishi)</i>	<i>24 908,2</i>	<i>26 312,7</i>	<i>29 123,4</i>	<i>31 575,3</i>	<i>33 905,8</i>	<i>34 558,9</i>	<i>138,7</i>
<i>Jami ekin maydoni, gektar</i>	<i>3 778,3</i>	<i>3 647,5</i>	<i>3 708,4</i>	<i>3 694,2</i>	<i>3 319,7</i>	<i>3373,1</i>	<i>89,2</i>

5-jadval

O'zbekiston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi trln. so'm va o'sish sur'ati, %⁶

Ko'rsatkichlar	2017-yil		2018-yil		2019-yil		2020-yil		2021-yilning yanvar-mart oylari	
	Trln. so'm	O'sish sur'ati %	Trln. so'm	O'sish sur'ati %	Trln. so'm	O'sish sur'ati %	Trln. so'm	O'sish sur'ati %	Trln. so'm	O'sish sur'ati %
Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar	68,9067	101,9	193,7033	100,2	217,2	102,4	251,8	102,9	28215,8	103,1
O'rmon xo'jaligi	0,1179	101,6	4,7575	103,1	5,7	101,8	6,7	101,7	1419,9	101,5
Baliqchilik xo'jaligi	0,4796	126,8	1,0766	113,8	1,4	127,0	1,8	119,8	225,9	102,7

2.1.5-jadval ko'rsatkichlarini tahlil etsak, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar miqdori 2017-yildan 2020-yilning birinchi choragiga qadar o'rtacha 2,1% ga, o'rmon xo'jaligida 1,94 % ga, baliqchilik xo'jaligida esa 18,02 % ga o'sib kelganini ko'rish mumkin.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 260,3 trln. so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 251,8 trln. so'mni, o'rmon xo'jaligi – 6,7 trln. so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 1,8 trln. so'mni tashkil qildi.

Aholiga qishloq xo'jaligi tomonidan yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ko'rsatkichlariga e'tibor qaratsak deyarli teng taqsimlanganiga

⁶ www.stat.uz yillar bo'yicha choraklik natijalar to'plami asosida muallif tomonidan tuzilgan.

guvoh bo'lamiz. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2019-yildan 2020-yilga 0,1 % ga o'sganini ko'rishimiz mumkin. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda bu ikkala tarmoq ulushlari deyarli katta farq qilmaydi. Shu boisdan ular bir-birini o'rnini bosuvchi tarmoqlar hissoblanadi. (6-jadval).

6-jadval

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, (% da)^{7*}**

Ko'rsatkichlar	2019-yil yanvar-dekabr oylari			2020-yil yanvar-dekabr oylari			2021-yil yanvar-matr oylari		
	Trln. so'm	O'sish sur'ati %	Ulushi	Trln. so'm	O'sish sur'ati %	Ulushi	Mlrd. so'm	O'sish sur'ati %	Ulushi
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi	215,7	102,7	100 %	249,8	102,8	100 %	28081,6	103,1	100 %
Dehqonchilik mahsulotlari	108,3	103,7	50,2 %	123,6	103,4	49,5 %	1762,7	105,0	6,3 %
Chorvachilik mahsulotlari	107,4	101,7	49,8%	126,2	102,1	50,5%	26318,9	103,0	93,7 %

7-jadval

**Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)^{8*}**

Ko'rsatkichlar	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-yil yanvar-matr oylari
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	65,4 %	65,1%	63,6 %	70,0 %	70,1 %	68,0 %	88,9 %
Fermer xo'jaliklari	32,6 %	32,9 %	34,7 %	27,3 %	26,9 %	27,8 %	7,1 %
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,0 %	2,0 %	1,7 %	2,7 %	3,0 %	4,2 %	4,0 %

7-jadval ma'lumotlarini tahlil etadigan bo'lsak, 2015-yildan 2020-yilgacha dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida yaratilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2,6 % ga o'sganini, fermer xo'jaliklarida 4,8 %ga qisqarganini, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 2,0 % ga o'sganini ko'rishimiz mumkin.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, 2020-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 68,0 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 27,8 % i – fermer xo'jaliklariga, 4,2 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

⁷ www.stat.uz yillar bo'yicha choraklik natijalar to'plami asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁸ www.stat.uz

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar – dekabr oylarida tarmoqning ijobiy o'sish sur'atiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi.

- Go'sht (tirik vaznda) – 102,1 %
- Sut – 102,8 %
- Sabzavotlar – 102,4 %
- Poliz – 103,2 %
- Meva va rezavorlar – 104,0 %
- Uzum – 102,2 %
- Ovlangan baliq – 118,4 %

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirishda 2017-yildan 2020-yillar oralig'ida go'sht(tirik vaznda) yetishtirish 2,9 % ga, sut 1,1 % ga, tuxum 6,7% ga kamaygani ni ko'rishimiz mumkin (8-jadval).

8-jadval

Mamlakatda jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari miqdori va o'sish sur'ati.⁹

Ko'rsatkichlar	Go'sht (tirik vaznda)		Sut		Tuxum	
	Ming tonna	O'sishi, %	Ming tonna	O'sishi, %	Ming tonna	O'sishi, %
2017-yil	2281,1	105,0	10083,2	103,9	6605,5	107,4
2018-yil	2417,4	105,7	10480,7	104,3	7360,5	116,2
2019-yil	2465,0	101,4	10710,8	102,3	7757,4	104,0
2020-yil	2526,2	102,1	11009,9	102,8	7825,0	100,7

O'zbekistondagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda. Quyida oziq-ovqat mahsulotlarining eksport-import tarkibi dinamikasi keltirilgan bo'lib (9-jadval).

⁹ www.stat.uz yillar bo'yicha choraklik natijalar to'plami asosida muallif tomonidan tuzilgan.

**Yillar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining eksport-import
dinamikasi (yanvar-dekabr, mln. AQSh dollarida)**

	2000-yil	2005-yil	2010-yil	2015-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	Farqi 2000–2020-y.
Eksport	176,4	206,1	1260,5	1316,4	1097,7	1336,3	1436,4	1260
Import	361,1	287,2	963,2	1585,3	1581,6	1851,3	1608,5	1247,4

10-jadvalda mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmi 2000-yilga nisbatan 1260 mln. AQSh dollariga, eksport esa 1247,4 mln. AQSh dollariga o'sganini ko'rishimiz mumkin.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1 008,6 mln. AQSh dollari qiymatli 1 485,0 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019- yilning mos davriga nisbatan 199,1 mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 16,5 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 400,0 mln. AQSh dollariga teng 768,3 ming tonna sabzavot, shuningdek, 353,9 mln. AQSh dollari qiymatidagi 402,3 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 6,7 % ni tashkil etdi. Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'istonga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 25,3 % i), bu Afg'onistonga eksport hajmidan 5,2 baravar ko'pdir.

**Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti
(2020-yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)^{10*}**

Ko'rsatkichlar	2018-yil		2019-yil		2020-yil		3 yillik o'rtacha o'sish qiymati	
	Mln. AQSh \$	Ming tonna	Mln. AQSh \$	Ming tonna	Mln. AQSh \$	Ming tonna	Mln. AQSh \$	Ming tonna
Jami:	874,5	1230,6	1200,0	1400,0	1008,6	1485,0	1027,1	1371,86
Meva va rezavorlar	357,7	—	406,8	—	353,9	402,3	372,8	—

¹⁰ *www.stat.uz yillik ko'rsatkichlar asosida tuzildi.*

Uzum (yangi uzilgan)	238,5	–	328,3	–	133,1	140,5	251,5	–
Uzum (quritilgan)					55,1	40,9	–	–
Qovun va tarvuz	6,5	–	13,1	–	25,6	105,6	15,06	–
Sabzavotlar	318,9	–	542,4	–	400,0	768,3	420,43	–
Yeryongʻoq	22,9	–	14,4	–	16,5	12,9	17,93	–
Qalampir	–	–	-	–	13,8	13,7	–	–
Kartoshka	–	–	-	–	0,4	0,7	–	–

11-jadval meva-sabzavot mahsulotlari eksport tarkibini tahlil etadigan boʻl-sak, 2018-yildan 2020-yillar oraligʻida oʻrtacha oʻsish qiymati 1027,1 dollarlik yoki 1371,86 ming tonnalik mahsulot eksporti amlga oshirilgan.

XULOSA

Hukumat tomonidan qishloq xoʻjaligi va bogʻdorchilikni rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 6,7 % ni tashkil etdi. Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozogʻistonga toʻgʻri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 25,3 % i), bu Afgʻonistonga eksport hajmidan 5,2 baravar koʻp miqdorni tashkil etmoqda. 2020-yildan oziq-ovqat mahsulotlari eksporti tarkibiga qalampir va kartoshkani ham qoʻshilganligi hududlarda eksport loyihalarining samarali ishlashidan dalolat beradi. Hududlarning oziq-ovqat isteʼmoli darajasining import mahsulotlar ulushida ham nisbatan moʻtadilligi ichki ishlab chiqarish hisobidan ijobiy qondirilayotganligidan dalolatdir.

Hududlarda oziq-ovqat tovarlariga boʻlgan talab aholisi zich boʻlgan hududlarda, ayniqsa, yuqoriligini kuzatish mumkin. Bunda hududlarda yetishtirilayotgan mahsulot miqdorining meʼyoriy isteʼmol miqorlari bilan solishtirma tahlil asosida oziq-ovqat tovarlarini talab darajasida qondirib bermayotgan hududlar aniqlandi. Ularga Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, Sirdaryo viloyatlari kirmoqda. Bu holatni bartaraf mahsulot yetishayotgan hududlardan ortiqcha mahsulot yetishtirgan hududlardan mahsulot yetishayotgan hududlarga mahsulot oqimini yoʻnaltirish orqali bozordagi talabni qondirish va narx moʻtadilligini ushlab turish mumkin.

2020-yilda Respublika hududlar boʻyicha dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish tarkibida sabzavot yetishtirish Andijon (1611,0 ming t.) va kartoshka(885,3ming t.) yetishtirish Samarqand viloyatlarida yuqoriligini koʻrishimiz mumkin. Don ekinlari(885,7 ming t.) Qashqadaryo viloyatida, Surxondaryo viloyatida poliz ekinlari(307,5 ming t.), meva va rezavorlar(666,9 ming t.)Andijon viloyatida, uzum yetishtirish(555,0 ming t.) Samarqand viloyatida yuqori koʻrsatkichlar bilan kelmoqda. Hududlar boʻyicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishda viloyatlarning yillar mobaynida shakllanib kelgan anʼanalari oʻziga xos ishlash uslubi, tuproq unumdorligi va ob-havoning taʼsirini yuqoriligini taʼkidlash joiz.